



YOZUVCHI SHAXSIYATI VA ESTETIK IDEAL

Nilufar Dilmurodova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi, TDIU dotsenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207582>

Annotatsiya: Maqolada taniqli o‘zbek adibi Asad Dilmurod shaxsiyati va estetik idealining uyg‘unligi yozuvchi ijod tutumi asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy meros, ijod tutumi, hikoya, qissa, roman, adabiy qahramon, hayot haqiqati, syujet, kompozitsiya, xarakter, poetik mahorat.

Yozuvchi dunyoqarashi, imon-e‘tiqodi, odam va olam haqidagi tafakkur hamda tasavvur kengliklari, taxayyul yuksakliklari, shuningdek o‘ziga xos insoniy fazilatlarini yaratgan badiiy asarlar matnida namoyon bo‘ladi. Ular badiiy niyat va estetik ideal uchun asos vazifasini o‘tagani uchun adabiy qahramonlar fikr-o‘ylari, xatti-harakatlari yetakchi motivlarini belgilab beradi. Zotan, har bir badiiy obraz tabiati va insoniy xarakter ma‘naviy-axloqiy dunyosini ijodkorining tiynati, badiiy-estetik olamidan xorijda tasavvur etish mumkin emas. Albatta, bu kabi muhokama-mulohazalar realistik va modernistik yo‘sinlarda barakali ijod qilib, salmoqli adabiy meros qoldirgan Asad Dilmurod axloqiy-ma‘naviy olami bilan poetik ijodi o‘rtasida uyg‘unlik mavjudligi, adib qalamiga mansub hikoya, qissa va romanlardagi tarixiy va zamonaviy voqelik ruhan kechinilgan ekani, ijod tutumida sayqal topgani haqidagi tahlil va talqinlar uchun asos bo‘la oladi.

Shu ma‘noda, Asad Dilmurod ardoqlagan: Mulla Abdujabbor, Mahammad Avaz, Nazokatbonu, Mohbonu (“Sherdor”); Shamsiddin Mahbubiy, Mahmud Torobiy, Subuha, Muhiddin Kamol, Suyguna Zebo (“Mahmud Torobiy”); Yodgor valiy, Saidbek Umar, Mohina, Hazora momo, Ena Ko‘kbo‘ri, Chaqaloq (“Fano dashtidagi qush”); Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Darvesh Muhammad (“Pahlavon Muhammad”) singari xarakterlar tabiatiga xos fazilatlar, ular ruhiyatida kechgan po‘rtanavor his-tuyg‘ular, hayotiy ziddiyatlar qarshisidagi kayfiyat-hollar Asad Dilmurod qalbidagi tebranishlardan oziqlanadi. Zotan, ijodkorning hayot haqidagi qarashlari unga munosabati bilan uyg‘unlashib, badiiy-estetik mohiyat kasb etadi. “Yozuvchi o‘zi tasvirlayotgan olamda yashaydi va uni ijodiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda talqin qiladi” [1: 2].

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Shu bois, Asad Dilmurod uchun ideal vazifasini o‘tagan tarixiy va to‘qima qahramonlar tarixning muayyan kesimidagi ijtimiy-madaniy voqelikda o‘zining fazilat va nuqsonlari, imkon va imkonsizlik aro to‘g‘ri yo‘l topish maqsadidagi intilishlari, fidokorliklari, o‘z-o‘zini taftish etishlari bilan kitobxon e‘tiborini tortadi, jonli odam sifatida qabul qilinadi. Chunki, Asad Dilmurod ularni kitobxonga aytar so‘zini yetkazishning namunasi, komil insonlar sifatida qabul qilgan. O‘zining qalb titrog‘i, ko‘ngil armonlari, orzu-istaklarini ishonib topshirgan. Ularning fikr-o‘ylari, xatti-harakatlari orqali olisu yaqin tarix va zamonasini badiiy taftish etishga, aniqroq aytganda tarixdan ibratli saboqlar chiqarishga muvaffaq bo‘lgandi. Yozuvchi o‘z ideallarini hissiy-intellektual qadriyat sifatida idrok etgani, ajdodlar tafakkur yuksakligi bilan zamonasiga poetik nigoh tashlagani, hayotdan go‘zallik, ulug‘vorlik, mo‘jizaviylik qidirgani, ayni paytda, fojiviylik yuzaga kelishi sababini izlagani, kulguli vaziyat-holatlarni ko‘ngil prizmasidan o‘tkazib ko‘rsata bilgani bois, ularning barchasi zamondosh kitobxon qalbiga ham yaqin. Bu hol yozuvchi subyektidan ibtidolangan estetik ideallar badiiy asar vositasida nainki zamin va zamonga, balki zamondosh fikri va ruhiyatiga ham ko‘chishini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, o‘zi aqliy va hissiy idrok etgan borliq haqidagi nuqtai nazarini ifodalovchi g‘oyaviy mazmun tashuvchi obrazlar va ishonarli hayotiy vaziyatlarni mutanosib shakllarda yetkazib bera olish – hayot haqiqatiga “libosi mavzun” kiydirishda yozuvchi tasavvur olami muhim o‘rin tutadi. Zotan real va badiiy haqiqatlar bir-biridan farqlanadi. “Badiiy haqiqat ijodiy xayol, fantaziya, xotira, orzu-umid, obrazlilik uyg‘unligida namoyon bo‘ladi hamda estetik idealni yanada ravshanroq yuzaga chiqaradi” [2: 27].

Kundalik hayotda jo‘n odamlar har kuni ko‘radigan, ammo payqamaydigan voqea-hodisalar ijodkor tasavvur dunyosi tufayli yangicha shakl va mazmun kasb etadi. Ijodiy tasavvur iste‘dodning darajasi, o‘tmish tajribalarini qayta idrok etib, voqea-hodisa yangi qirralarini nafosatli ko‘ra olish salohiyatini namoyon etadi.

Badiiy ijodkorlik o‘zining odam va olam haqidagi poetik tasavvurini optimal va intensiv kamol toptirgan, ularni milliy qadriyatlar, ma‘naviy-axloqiy me‘yorlar negizida tarixan to‘g‘ri tushunib, samimiy va xolis estetik baholay oladigan alohida shaxsning insoniy xarakteri, qiziqish-qobiliyati, badiiy mahorati bilan chambarchas bog‘liq murakkab aqliy-hissiy jarayondir. Ijodkor zohiran odamlar orasida, botinan esa o‘zigagina xos to‘liq, quvnoq va qiziqarli olamda yashaydi. Optimistik tasavvurlar olami, ruhiyatiga yaqin xayoliy timsollar va qahramonlar dunyosida umrguzaronlik qilgani bois, ular zohiran birqadar g‘ayrioddiy ko‘rinishadi. Muhimi,



ular o‘z olami bilan real hayotni yanada ko‘rkamroq ko‘rish, fikr-tuyg‘ularini o‘ziga yaqin orbitada yashovchi odamlar bilan bo‘lishish niyatida qalam va qog‘oz bilan sirlashadi.

Professor Sh.Hasanov bizni qurshab turgan olamni obyektiv yoki subyektiv talqin etishda ijodkorni voyaga yetkazgan ijtimoiy, ruhiy-psixologik jarayonlar ta’siri o‘z izini qoldirishi haqida to‘xtalib: “Xolislik – ijodkor uchun yaxshi fazilat. Har qancha xolislik bo‘lsa-da, tarixiy voqelik baribir ijodkor xarakteri, tafakkuri va qalbi “tahriri”dan o‘tib muayyan bir asar shakliga kiradi. Ijodkorning xarakteri, tafakkuri, qalbi esa uni qurshab kelgan muhit va sharoitning “havosidan nafas oladi”, - деб ёзди [3: 7].

Darhaqiqat, har bir adib, xususan, Asad Dilmurod ham, ijod jarayonida badiiy asarlari uchun taassurotlarni, avvalo, o‘zini qurshagan muhitdan olgan. Ularni o‘z shaxsiyatiga xos fazilatlar bilan boyitgan. Shuning uchun, bemalol aytish mumkinki, rahmatlik dadamiz yaratgan obrazlarida muayyan ma’noda ularning o‘zlari ham “yashaydi”lar. Jumladan, men yuqorida sanalgan qahramonlar siyratida dadamiz uchun g‘oyat ardoqli bo‘lgan his-tuyg‘ular, fikr qarashlar, xotira-xayollar bo‘y ko‘rsatishini yaxshi anglayman. Chunki, har bir ijobiy qahramonlari ortidan jilmayib turganlarini har lahza his qilaman.

Bu bejiz bo‘lmay, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ta’kidlaganidek: “Yozuvchining hayotga munosabati, uning e’tiqodi, imoni, kimlarni yoqlashi, nimalarga qarshi kurashishi, talantining xarakteri, hayotiy tajribasi, uslubi – hammasi ijodiy mehnat jarayonida yaratilgan obrazlarga, xarakter va tiplarga o‘tadi” [4:109]. Chunki Asad Dilmurod yaratgan obrazlariga o‘z tiyatiga xos jihatlarni yuklagan, ularni o‘z ma’naviy-ruhiy dunyosi bilan to‘yintirgan. Dadamiz ijodiy izlanishlari o‘zak mag‘zini yaxshi anglagan professor N.Rahimjonov shunday deb yozadi: “*Ijodiy konsepsiyasiga ko‘ra, har bir asarida butun e’tiborini izchil ravishda, avvalo, badiiy so‘z san’atining asosiy obyektini sanalgan inson mohiyatini tadqiq etishga qaratadi, binobarin, insonni bashariy qadriyat – tiriklik jozibasi timsoli deb biladi. Hayot nashidasini odamzodga berilgan oliy ne‘mat, tirikchilik mashaqqatlarini sinov tariqasida tushunadi. Natijada, ma’naviy-intellektual, axloqiy kamolot bilan bog‘liq badiiy-estetik misollar ijodiy izlanishlari o‘zak mag‘zini tashkil qiladi*” [5: 6]. Darhaqiqat, adib barcha asarlarida inson va uning tuyg‘ularini birinchi o‘ringa ko‘targan edi.

A.Dilmurod estetik ideallari shakllanishida go‘zallik, ulug‘vorlik, xayoliylik, mo‘jizaviylik, uyg‘unlik singari kategorial tushunchalar muhim rol o‘ynagan. Adib

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



xunuklik va tubanlik kabi hodisalarni estetik baholash jarayonida fojiaviylik va kulgulilik kategoriyalariga murojaat etgan. O‘z tafakkur va taxayyuli, bilim va hayotiy, ijodiy tajribasiga tayanib, fikr-xayolini band etgan tabiat va jamiyat, odam va olam munosabatlari bilan bog‘liq muayyan hodisa yoxud shaxs ustidan poetik hukm chiqargan. Albatta, ijodiy tasavvurning paydo bo‘lishi ilohiy mohiyatga ega. Biroq Asad Dilmurod o‘z hayoti va faoliyati davomida ularni yanada kamol toptirish uchun ozmuncha mehnat qilmagan.

Kezi kelganda, aytish kerakki, badiiy asarni mutolaa qilish asnosida biz yozuvchi estetik ideallarini tashuvchi qahramonlar siyrati orqali muayyan asar yozilgan ijod onlaridagi Asad Dilmurod fikr-o‘ylari, xotira-xayollari, azaliy qadriyatlarimizga nafosatli munosabati, orzu-armonlari, ya’ni o‘z tasavvurimizdagi ijodkor tomon boramiz. Chunki badiiy asarlar kommunikativ dialog orqali o‘z chiroyini yanada ko‘rkamroq ochishini yaxshi bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. II jildlik. II jild. Adabiy-tarixiy jarayon. – T.: Fan, 1979. – B. 109 .
2. Основы общей психологии. – Издательство «Питер». – Москва-Харьков-Минск, 1999.
3. Rasulov A. Ilmi g‘aribani qo‘msab. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 64.
4. Rahimjonov N. Yorug‘ so‘z yog‘dulari (asarga so‘zboshi) /Dilmurod A. Mezon burji. Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 448.
5. Hasanov Sh. Ijodkor shaxsiyati va voqelik. // Adabiyot gazetasi. 2018-yil 29-mart. 5(09) – B. 7.